




BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH



Ibadullayeva Inobat Abdullayevna

Qoraqolpog'iston respublikasi

Nukus shahri 46-sonli umumta'lim maktabi

o'zbek(davlat) tili fani o'qituvchisi

Kamalova Dilrabo Kaxramanovna

Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani

120-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada maktabda boshlang'ich sinflarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish usullari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: O'zaro hamkorlik pedagogikasi, ijodiy o'yin, "Maqolni davom qildiramiz" o'yini.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" hamda ularning hayotga tatbiq etishini ta'minlovchi hukumat qarorlari shaklidagi me'yoriy hujjatlar asosida respublikamizda usluksiz ta'lif tizimining poydevori yaratildi. Uzlusiz ta'lifning barcha bo'g'inalarini boshqarish, jahon andozalari va zamон talablari darajasida yo'lga qo'yish, ularning har biri uchun xos bo'lgan xususiyatlar va imkoniyatlarni hisobga olgan holda, ta'lif-tarbiyaning yangicha tizimini shakllantirish mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining negizi sifatida kun tartibiga qo'yildi.

Davrimiz hozirgi yosh avloddan fikrlash va fikr mahsulini to'g'ri ifodalashni talab qilar ekan, o'quvchilarda bu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun yangidan-yangi usul va metodlardan foydalanishimiz kerak.

Ta'lif-tarbiya jarayonining barcha jihatlarini qamrab oluvchi davlat ta'lif standartlari bugungi kunda yosh avlodning Vatanga sadoqat, yuksak axloq, ma'naviyat va ma'rifat, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish hamda o'zi sevgan kasbini mukammal egallash yo'lida qunt bilan bilim olishlari uchun kafolat bo'lib xizmat qilmoqda.

Ta'lif-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri – ta'lif-tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, ta'lif tizimining ilg'or tajribalarini o'rganish va ularni dars jarayoniga tatbiq etishdan iboratdir.

Bugungi pedagogik texnologiya o'quvchida tashabbuskorlikni, mustaqillikni, bilimlarni puxta va chuqur o'zlashtirishni, kuzatuvchanlikni, xotira va ijodiy tasavvurni tarbiyalovchi usullarni qo'llashni talab etadi.



Ona tili fani o‘quvchilarning tafakkur qilish qobiliyatlarini kengaytirish, erkin va mustaqil fikrlay olishi, o‘zgalar fikrini anglashi, o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda bayon qila olishida xizmat qiladi.

Ona tili darsliklarida o‘tiladigan ba’zi mashqlarda o‘quvchi o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan ma’lumotni o‘zi mustaqil topishi kerak bo‘ladi. Bu esa o‘quvchidan qunt va sabr talab qiladi. Bunda o‘qituvchi ham o‘quvchini darsga qiziqtirishning yangi usullaridan foydalanishi maqsadga muvofiq.

O‘qituvchi har bir asar matni yatasidan darslikda berilgan savol-topshiriqlar yordamida o‘quvchining har birini o‘z darajasida fikrlashga, hayotiy haqiqatni asar tahlili davomida o‘zi kashf etishiga imkon yaratishi kerak.

Demak, o‘qituvchi dars jarayonini yaxshi tashkil qilishi uchun nafaqat bilimli, balki pedagogik mahorat va pedagogik texnikani yaxshi egallagan bo‘lishi lozim. U o‘quvchiga qachon va qanday ta’sir o‘tkazishni bilishi, shu bilan birga ozroq kuch sarflab, ko‘proq natijaga erishish yo‘llarini izlashi lozim.

Savol berish ham bir san’at bolib, o‘qituvchi buni chuqur anglashi va o‘quvchilarga ham singdirishi lozim. Jo‘yali savolga qandaydir tushunib yetilmagan teranlik bo‘lib, o‘quchilarни izlanishga, asar mutolaasiga chorlaydi.

O‘zaro hamkorlik pedagogikasi o‘qituvchi va o‘quvchi orasida hamfikrlilik, ishonch, o‘zaro yordam, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi. Bu esa o‘z navbatida, yoshlar tomonidan haqiqiy insoniy qadriyatlarni anglash va e’tirof etishni kafolatlatlaydi.

“Maqolni davom qildiramiz” o‘yini. Bu o‘yinda o‘qituvchi tomonidan nutq madaniyatiga oid maqollar boshlanmasi keltiriladi. O‘quvchilar esa bu maqollar davomini topadilar va mazmunini izohlab, o‘z fikr-mulohazalarini ham bildiradilar.

O‘qituvchi: Yaxshi so‘z bilan ilon inidan chiqadi-

O‘quvchi: Yomon soz bilan pichoq qinidan.

O‘qituvchi: Tilga hurmat-

O‘quvchi: Elga hurmat.

O‘yin shu tarzda davom qildiriladi. Yoki bu o‘yinni o‘quvchilar guruh-guruh bo‘lgani holda amalga oshirishlari ham mumkin.

“To‘pni ushla” o‘yini. Bu o‘yin quyidagicha amalga oshiriladi. 2-sinf ona tili darsligida “So‘z turkumlari” haqida boshlang‘ich ma’lumotlar berilgan, jumladan “Shaxs va narsaning nomini, belgisini, sanog‘ini, tartibini bildirgan so‘zlar” mavzusini o‘rganish va uni mustahkamlash jarayonida “To‘pni ushla” o‘yini juda qo‘l keladi. Bunda o‘qituvchi yumshoq koptochni olib biron o‘quvchiga qarata so‘z aytadi va koptochni otadi, o‘quvchi koptochni ushlab olib so‘zning qaysi turkumga oidligi topadi, va o‘zi boshqa so‘z aytib boshqa o‘quvchiga qarata otadi. O‘yin shu tarzda davom ettiriladi. Bu o‘yin orqali o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan

birgalikda chaqqonlikka, topqirlikka ham undaydi. O‘yin oxirida eng chaqqon va g‘olib o‘quvchi aniqlanib, rag‘batlantiriladi.

Ona tili darslarida bunday interfaol usullar, o‘yin texnologiyalarini qo‘llash, ulardan foylanish yaxshi samara beradi. Bu kabi o‘yinlar orqali nafaqat o‘quvchining dunyoqarashi kengayadi, balki fanga bo‘lgan qiziqishi yanada ortib boradi.

Xullas, ta’lim sifatini oshirish uchun an’anaviy dars shaklini saqlab qolgani holda, uni o‘quvchilar faoliyatini oshiradigan turli xil o‘yinlar asosida tashkil etish, o‘yin texnologiyalari bilan boyitish yaxshi samra beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. J.Xasanboyev, X.To‘raqulov Pedagogika (Pedagogika nazariyasi, didaktika 2-qism). T.: 2011
2. Qosimova N. “Ona tili o‘qitish metodikasi” T.: 2014